



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

ULUG' MUTAFAKKIR SHOIR VA DAVLAT ARBOBI ALISHER NAVOIY TAVALLUDIGA 584 YIL



*O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi arafasida
Turkiya Respublikasining Anqara shahrida qad rostlagan
ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning haykali nafaqat biz uchun,
balki butun turkiy dunyodagi qardoshlarimiz uchun katta sharaftir.*

Shaxzoda MUXAMMADALIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
shahzodaxon532@gmail.com

RAMZ VA UNING BOSHQA BIRLIKLARDAN FARQI

Annotatsiya: ushbu maqolada ramzning tilshunoslikda mavjud bo'lgan boshqa birliklardan farqi tahlil qilinadi. Ramziy ma'noning o'ziga xosliklari ochib beriladi. Birliklar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlari yoritilib, ularning alohida xususiyatlari izohlanadi.

Kalit so'zlar: ramz, ramziy ma'no, belgi, metafora, allegoriya.

Annotation: this article analyzes the difference between a symbol and other units in linguistics. The peculiarities of the symbolic meaning are revealed. The similarities and differences between the units are highlighted, and their special features are explained.

Key words: symbol, symbolism, symbol, metaphor, allegory.

Аннотация: в данной статье анализируется отличие символа от других единиц языкознания. Выявляются особенности символического значения. Выделены сходства и различия между единицами, объяснены их особенности.

Ключевые слова: символ, символизм, символ, метафора, аллегория.

Ma'lumki, so'zlar yangi yaratilgan davrida bir ma'noli bo'ladi. Olamning o'zlashtirilishi va inson bilimining oshib borishi natijasida so'zlarning ham ma'nolari ko'payib boraveradi. Bizni qurshab turgan olam hamda u haqidagi bilimlarimiz cheksiz bo'lib, ularni nomlash jarayonida til egalari nomi mavjud va nomlanishi kerak denotatlar o'rtasida muayyan bog'liqliklar topadi va oqibatda birinchisining nomi bilan ikkinchisini nomlaydi [4: 90]. Bu esa ramz, metafora va boshqa shunga o'xshash hodisalar yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan omillardan hisoblanadi. Ularning soni dastlabki davrlarda kam bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan ko'payib borgan va ahamiyati ortgan.

Insonning ko'plab ehtiyojlari orasida uni hayvonlardan keskin ajratib turadigan narsa bor - timsolga bo'lgan ehtiyoj. Inson shunchaki jismoniy muhitda yashamaydi, u ramziy koinotda yashaydi [2: 73]. Aynan shuning uchun ham odamzod taraqqiyotning ilk davrlaridanoq atrofda voqea-hodisa, narsalarni ramzlashtirgan.

Tilshunoslikda ramz hodisa taqdid etilgan bo'lsa-da, u haqida oxirgi aniq fikrga kelingan emas. Shuning uchun ham u haqida turli xil ta'riflar juda ko'p. Ularning ayrimlari o'xshash bo'lsa, ayrimlarida farqli jihatlari ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ramzni unga o'xshash bo'lgan belgi, metafora, allegoriya kabi hodisalar bilan adashtirish holati ham ko'p uchraydi. Biz ushbu

maqolada ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni, o'ziga xosliklarini turli tadqiqotlardan olingan yakuniy xulosalar orqali yoritib beramiz.

Ramziylik asosida yaratilgan obrazlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular muayyan xalq uchun aziz bo'lib, qadriyat sifatida e'zozlanadi. Ramz voqea-hodisa yoki predmetning mohiyatini ifodalovchi obyekt yoki so'zdir. Belgida majoziy ma'no bor, shuning uchun u metaforaga yaqin hodisa hisoblanadi. Biroq bu yaqinlik nisbiydir. Metaforada bir hodisa yoki predmetning belgisi boshqasiga to'g'ridan to'g'ri o'xshatiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, ramz esa tuzilishi va ma'nosi jihatidan ancha murakkab. Uning ma'nosi noaniq va oxirigacha ochib berish qiyin, ko'pincha imkonsizdir [6: 234].

Ramz va metafora o'rtasidagi o'xshashlik ikkalasida ham ko'chma ma'no mavjudligida hisoblanadi. Ammo bu ko'chma ma'nolar hosil qilinishida yetarlicha farqliliklar mavjud. Ya'ni metaforada so'z o'xshashlikka (shakliy, belgi, harakat) asoslangan holda ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, stolning oyog'i, arraning tishi, shirin bola, sovuq xabar, zanglagan ko'ngil, kuylayotgan quyosh kabi. Ramzda esa o'xshashlik muhim ahamiyat kasb etmaydi va xalq so'zida qanday ma'no ko'rsa, shunday ma'no uchun ishlatiladi. Qoniga tortmoq, oq-qorani ajratmoq, chiningni top, nonini tortib olmoq kabi birik-

Xaritonovanning ta'kidlashicha, belgi va ramz o'rtasida quyidagi farqli jihatlari bor:

Belgi	Ramz
Belgi shunchaki atrofda voqelikning qandaydir obyektiga ishora qilish uchun mo'ljallangan.	Ramz voqelikning turli tomonlarini semantik jihatdan birlashtirish uchun mo'ljallangan.
Oddiy belgi insonga obyektiv ma'nolar olamiga kirib borishga imkon beradi.	Ramz semantik munosabatlarning obyektiv bo'lmagan dunyosiga kirishga imkon beradi.
Belgini belgi sifatida sof shaklga keltirish mumkin emas, u izohlashni talab qiladi, chunki uni madaniy kontekstdan tashqarida tushunish mumkin emas.	Ramzlar tufayli inson odamlarni yagona etnik-madaniy jamoaga birlashtirgan chuqur ma'nolarni tushunadi [5].

malarda so'zlar ramziy ma'nolarda ishlatilib, ajdodlariga o'xshamoq, yaxshi-yomon insonlarni ajratmoq, turmush o'rtog'ingni top, tirikchiligidan ayirmoq kabi ma'nolarni bildirib kelmoqda.

Alohida e'tirof etish o'rinliki, metaforalarning yuzaga kelishida ramzlar asos bo'lgan. Bizningcha, san'atning keyingi taraqqiyot bosqichlarida esa ramzlarning takomillashiga metaforalar sabab bo'lgan. Ijtimoiy ong va tafakkur rivojida, shubhasiz, ramzlarning o'ri beqiyosdir [6: 237].

Ramzga yaqin bo'lgan keyingi birlik allegoriya hisoblanadi. U ko'proq adabiyotga daxldor bo'lib, obrazlilikning bir turi hisoblanadi. Bunda ma'no aniq obraz orqali ochiladi, markazda ko'proq hayvon va qushlar turadi.

Allegoriyada mavhum fikr badiiy obraz orqali ifodalaniadi. Lekin bu holda g'oya tasvirga o'zlashtirilmaydi, balki tashqi bo'lib qoladi unga nisbatan, mustaqil. Ramzdan farqi: ramz polisemantik, allegoriya bir ma'noli. Allegoriyaga misol bo'lib har qanday ertak xizmat qilishi mumkin [3: 25].

**Allegoriya va ramz o'rtasidagi
farqli jihatlarni quyidagi jadvalda yanada
aniqroq ko'rishimiz mumkin:**

Allegoriya	Ramz
Allegoriya o'tkinchi.	Ramz o'zgarmas.
Allegoriya faqat tushunishga qaratilgan.	Ramz idrok va tushunishga qaratilgan.
Allegorik ma'no berilgan sxema bo'yicha yaratiladi va tan olinadi.	Ramziy ma'no "tirik" assotsiatsiyalar asosida vujudga keladi. Ramziy ma'no voqelikning tipik, umumlashgan aksidir [5].

Tilimizda ramziy ma'no kasb etadigan so'zlar salmog'i ko'p. Ramziy ma'no yuzaga chiqishi uchun so'zda bir qancha xususiyatlar bo'lishi kerak. Ramziy ma'noning o'ziga xosliklari quyidagilar hisoblanadi:

- Ramziy ma'noda leksemaning o'zining konkret ma'nosi bo'ladi. Va u ikkinchi marta qayta o'zining ma'nosidan tashqari boshqa bir mavhum tushunchani nomlaydi;

- Ular har doim hosila ma'no bo'ladi;
- Konseptlarni hosil qiladi. Ya'ni ramziy ma'no shu xalqning muayyan bir konseptini o'zida ifoda qiladi;
- Xalqning milliy-madaniy qarashlari bilan bog'langan bo'ladi;

- Ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Xalqqa tanish, xalqqa yaqin, bevosita kuzatishda berilgan muayyan bir narsaning nomi bo'ladi;

- Ramziy ma'no so'zni qo'llashda birlamchi va ikkinchi darajali ma'nolarning qo'shilib ketishi natijasida vujudga keladi.

Ramziy ma'no bo'lishi uchun so'zda quyidagi jihatlarni bo'lishi kerak:

1- Ko'chma ma'noda bo'lishi kerak;

2- So'z o'z ma'nosida aniq narsani bildirishi kerak. U xalqqa yaqindan tanish, ko'p ishlatiladigan bo'lishi kerak. Masalan: a'zo - qon; yemish - non, tuz; o'simlik - chinor, lola; hayvon - ot, it, bo'ri, ayiq; rang - oq, qora, qizil, yashil;

3- Qaysidir xalqqa xos mavhum, murakkab tushunchani ifodalashi kerak. Xalq bosh ma'nodagi shaklni mavhum tushunchaga olib o'tadi;

4- Va birinchi ma'noni nomlayotgan aniq narsa ikkinchi ma'noning ramzi bo'lishi kerak. Chunki ikkinchi ma'noning shakli yo'q. U mavhum tushuncha bo'lib, xalq uchun qadrlil bo'lgan, konsept darajasiga ko'tarilgan tushuncha bo'ladi. Va ramziy ma'no orqali mana shu millat shaklsiz mavhum tushunchaga shakl beradi;

5- Unda xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkuri aks etgan bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tilimizda ramziy ma'no bildiruvchi so'zlar juda ko'p. Ularning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Ramz va unga o'xshash birliklarda chegara bir-biriga juda yaqin bo'lganligi bois ularni chuqurroq tahlil qilish kerak. Bu esa lingvistik hodisalarni aralashtirib yuborish, birining o'rnida ikkinchisini qo'llashdan bizni qutqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmaraimova Sh. Lingvokulturologiya.- Toshkent: Cho'lpon, 2017.
2. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001.
3. Сычева С. Г. Проблема символа в философии. – Томск: 2000.
4. Hakimova M. Abstrakt nomlar semantikasi. F.f.d. diss. – Toshkent: 2019.
5. Харитонов Е.Ю. Трактовка понятия «символ» в лингвистике. Электронный журнал «Вестник МГОУ» / www.evestnik-mgo.ru. – 2014. – № 1.
6. Sharipova D. Ramz va metafora. So'z san'ati xalqaro jurnali. 6-son, 3-jild, 2020.